



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 1 - dekabr

208-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Jarqo‘rg‘on tumani “Oqqo‘rg‘on” massivi 2-uchastka hududidan Qiziriq tumani aholisiga
“Qabrison” tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5-moddasi va “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi 101-son qarori bilan tasdiqlangan “Dafn etish joylarini saqlash, ulardan foydalanish va qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish tartibi to‘g‘risida” nizomning 51-bandiga asosan, viloyat hokimligi huzuridagi yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko‘rib chiquvchi komissiyaning 2021-yil 01-iyundagi 03-02/427-son yig‘ilish bayoni, Jarqo‘rg‘on tumani hokimining 2021-yil 01-maydagi 01-05/156-son xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Jarqo‘rg‘on tumani “Oqqo‘rg‘on” massivi 2-uchastka hududidan Qiziriq tumani aholisiga “Qabrison” tashkil etish uchun tuman hokimligi zaxirasidagi qishloq xo‘jalik xaritasining 6q-dala konturidagi 5,0 yaylov yer maydoni doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyat boshqarmasi (M.Abduraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish, yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasiga hamda yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlasin.

4. Viloyat qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e'lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Xidirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.